



---

**FRANSUZ TILIDA IKKILAMCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR  
YASALISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10633289>

**Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna**

*Andijon davlat chet tillari instituti, fransuz tili nazariyasi va  
amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi.*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada birlamchi va ikkilamchi transpozitsiyaning asl va derivativ birliklarini shakl va mazmun tamonidan xususiyatlari qiyoslangan. Ikkilamchi frazeologik birliklar tarkibidagi o'zgarishlar misollar yordamida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**

frazeologik birikmalar, iboralar, birlamchi transpozitsiya, birlamchi frazeologik birliklar, ikkilamchi frazeologik birliklar, derivatlar.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье сравниваются исходные и производственные единицы первичной и вторичной транспозиции по форме и содержанию. На основе примеров раскрываются изменения в составе вторичных фразеологизмов.

**Ключевые слова**

фразеология, словосочетания, первичная транспозиция, первичная фразеология, вторичная фразеология, дериваты.

**ABSTRACT**

This article compares the initial and production units of primary and secondary transposition in form and content. Based on examples, changes in the composition of secondary phraseological units are revealed.

**Key words**

phraseology, phrases, primary transposition, primary phraseology, secondary phraseology, derivatives.

Ma'lumki, frazeologik tizimning rivojlanishi va boyitilishi murakkab va ko'p qirrali jarayondir, birlamchi transpozitsiya jamiyatning barcha sohalarida hayot sharoitlari bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan juda yorqin va ifodali o'zgaruvchan birikmalarni tanlashni o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqib, ikkilamchi transpozitsiya deganda esa, biz bir leksik-grammatik sinfga mansub birlamchi frazeologik birliklarning boshqa sinfga o'tishi sababli ikkilamchi



frazeologik birliklar shakllanishi jarayonini tushunamiz. Ya'ni avvaldan mavjud bo'lgan ko'chma ma'noli bilvosita nominativ birliklar asosida yangi bilvosita nominativ birliklarning hosil bolishidir<sup>14</sup>.

Ikkilamchi transpozitsiyada asl birikma strukturasi saqlashi yoki o'zgartirishi bilan birga semantik-sintaktik qayta quriladi. Masalan, *verser des larmes de crocodile* (timsoh ko'z yoshlarini to'kmoq) – *les larmes de crocodile*, «biron narsa ilinjida yig'lamoq» – «yolg'on ko'z yosh»; *être fauché* (o'rilgan bo'lmoq) – *fauché*, «puli yoq bo'lmoq» – «pulsiz, kambag'al»; *casse-pied* – *casse-pieds*, "singan oyoq" – "zararkunanda"<sup>15</sup>.

Fransuz frazeologiyasida birlamchi frazeologik birliklar asosida ikkilamchi frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni yetarlicha yoritilmagan. Buning asosiy sababi, o'zgaruvchan fraza va birikmalarning frazeologizatsiyalanishi (iboraga aylanishi) bilvosita nominativ birliklarini shakllantirishning asosiy usuli sifatida ko'rib chiqilgan<sup>16</sup>. Birlamchi va ikkilamchi transpozitsiyaning asl va derivativ birliklarining shakl va mazmun tamonlari xususiyatlari qiyoslab ko'rilganda, ushbu frazeologik iboralar transpozitsiyaning umumlingvistik jarayoni doirasida aniq talqin qilishning maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi, chunki bu uning xususiyatlarini to'liq aniqlash imkonini beradi. Aslida frazeologik birliklarning shakllanishi ikki bosqich va uning ikkita kichik turi bilan ifodalanadi, shundan kelib chiqadiki, leksik-semantik va frazeologik darajadagi transpozitsiya bosqichlari soni mos keladi, lekin kichik turlari soni mos kelmaydi. Bunday xulosa frazeologik va leksik birliklarni shakllanishini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki bu turli sathda birliklar tizimli (sistemali) shakllanishga egaligini ko'rsatib turadi.

So'z birikmasi muammosini ko'rib chiqish ushbu jarayonning asosiy birliklari - o'zgaruvchan birikmalar va ularning tarkibiy qismlarini o'rganish bilan bevosita bog'liq. Shundan ko'rinadiki, birikmalardagi o'zgaruvchan kombinatsiyalar hajmi birlamchi birliklar tarkibiga ta'sir qiladi, ular orqali esa ikkinchi darajali frazeologik birliklar tarkibi ham ta'sirga uchraydi. Potentsial birlamchi frazeologik birliklarning soni bevosita ularning asl birlashmalari mazkur tildagi so'zlovchi va uning obrazli assotsiativ darajasiga qarab belgilanadi.

Misollarda ko'rib chiqsak:

Fransuz tilida «*noyer le poisson*» frazeologizmi so'zma so'z «baliqni cho'ktirmoq» deb tarjima qilinadi. Ushbu birikmaga izohli lug'atda shunday ta'riflar berilgan<sup>17</sup>: 1. *Fatiguer un poisson pris à la ligne, de manière à l'amener à la*

<sup>14</sup> V. Teliya. Vtorichnaya nominatsiya i ego vidi. –M., 1977, 129-betlar

<sup>15</sup> *Le petit Larousse*. –Paris, 2000,293-bet

<sup>16</sup> A. Nazaryan. Frazeologiya sovremennogo fransuzskogo yazika.- M., 1976, 5-bet

<sup>17</sup> *Le petit Larousse. Dictionnaire encyclopedique*. Paris , 1993, p-704(1777 p)



surface. Bu erkin birikmada ko'chma ma'no kuzatilmaydi. Undagi «noyer» fe'li «Faire mourir par asphyxie dans un liquide» ya'ni «suyuqlik ichida havo yetishmasdan bo'gilish orqali o'ldirish» deb ta'rif berilgan, «le poisson» baliq bo'lib, u aynan suvda yashaydi. Ushbu alohida komponentlar tarjimasidan so'ng, izohning tarjimasiga qaytsak, qarmoqda tutilgan baliqni quruqlikka chiqarib charchatish ma'nosi baliqchilarni baliq tutish uslubidan kelib chiqqan. Boshqacha qilib aytganda, baliqchilar baliqni tutgandan keyin idishga joylashdan oldin, uni bir necha bor suvdan olib, suvga tiqib holdan toydirishgan<sup>18</sup>.

Larousse ensiklopedik lug'atida ushbu birikmaning ko'shma ma'nosi ham keltirilgan: 2. Embrouiller une question, un problème pour tromper ou laisser, le fait de ne pas aborder le sujet central d'une conversation-«savoldan chalg'itish, muammodan adashtirish», «muloqot markazida turgan masala atrofida bo'lish» kabi faoliyatlarni ifodalaydi. Yuqoridagi izohlardan kelib chiqib «noyer le poisson» maqsadga o'tmay gapni aylantirish, asosiy mavzudan qochish holatlarini ifodalaydi. Ya'ni asl ma'nosini transpozitsiyasi birlamchi frazeologik birlik hosil bo'lishiga asos bo'lgan. «Hamsuhbatni ko' informatsiyalarga ko'mib tashlash natijasiga asosiy mavzuni unittirish»- bu yuqoridagi frazeologik birlikning asosiy ma'nosi bo'ladi va u nutqqa ko'chganda turli assotsiatsiyalar keltirib chiqaradi: saylovda nomzodning berilgan savolga javobdan qochishi, nozik (tabu bo'lgan) mavzu atrofida gapni aylantirish kabilar. Misollar izohi o'zbek tilida ham ishbu frazeologik birlikning ekvivalentlari mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, aravani quruq olib qochmoq, gapni aylantirmoq, mavzudan chalg'itmoq.

« Il est naturellement incertain, et son art est de faire passer son incertitude pour politique. Il noie le poisson par hésitation et inconsistance. » (U tabiatan o'ziga ishonmasdi, o'zidagi ishonchsizlikni siyosatda ko'rsatishga usta edi. U beqaror va ikkilanishlar bilan mavzudan qochardi)

(Henry de Montherlant. La reine morte.p-21)

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, agar boshlang'ich birikmalardagi kategorik o'zgarishlar har doim ham tizimli xususiyatga ega bo'lmasa, birlamchi transpozitsiyadagi semantik o'zgarishlar muntazamlik bilan tavsiflanadi. Ko'pgina birlamchi frazeologik birliklarning ma'nolarini taqqoslash birlamchi transpozitsiyada tur va uyali transpozitsiya kabi shakllarni aniqlash imkonini beradi. Aspektual transpozitsiya tashqi ko'rinishida farq qiluvchi birlamchi fe'l frazeologik birliklarining korrelyativ juftliklari mavjudligini anglatadi, ammo aspekt tushunchasi "faqat harakatning mukammalligi yoki nomukammalligini ifodalash bilan cheklanib qolmasligi kerak".

<sup>18</sup> <https://www.lalanguefrancaise.com/expressions/noyer-le-poisson>



Ushbu yondashuvning kengligi nafaqat mukammal yoki nomukammal harakatni, balki ushbu harakatlarning turli bosqichlarini ham nomlaydigan og'zaki frazeologik birliklarni tur transpozitsiyasi sifatida tasniflash imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR

1. Sh. Rahmatullayev. Xozirgi adabiy o'zbek tili. -T., 2006
2. V. Teliya. Vtorichnaya nominatsiya i ego vidi. -M., 1977
3. G. Sokolova. Sostav komponentov frazeologicheskix edinitis fransuzskogo yazika. -S., 1994
4. Sh. Bally. Obshaya lingvistika i voprosi fransuzskogo yazika. -M., 1955
5. Le petit Larousse. -Paris, 2000
6. Nortoeva Nodira Muhammadalievna. (2023). Communicative-pragmatic direction in the study of phraseological units and their derivatives in French and Uzbek. international journal of social science & interdisciplinary research <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1526>
7. Muhammadalievna, N. N. ., & Wijk, R. van Communicative-Pragmatic Particularity in the Study of Phraseological Units and Their Derivatives in French and Uzbek. journal of education, ethics and value, 2(11), 2023 26-28. <http://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/225>  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=czuxykAAAAJ&citation\\_for\\_view=czuxykAAAAJ:KlAtU1dfN6UC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=czuxykAAAAJ&citation_for_view=czuxykAAAAJ:KlAtU1dfN6UC)
8. Anarboyeva I.O.I. [https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=czuxykAAAAJ&citation\\_for\\_view=czuxykAAAAJ:KlAtU1dfN6UC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=czuxykAAAAJ&citation_for_view=czuxykAAAAJ:KlAtU1dfN6UC)